# DXX KUBOGI DAVOM ETMOQDA

Image not found or type unknown



DXX KUBOGI DAVOM ETMOQDA

Joriy yilning aprel oyidan boshlab, yurtimizning har bir goʻshasida mini-futbol boʻyicha DXX kubogi musobaqasi oʻtkaziladi.

Termiz shahrida bugun Oʻzbekiston yoshlar ishlari agentligi, Sportni rivojlantirish vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati hamkorligida 16 yoshdan 30 yoshgacha boʻlgan yoshlar oʻrtasida futbol va mini-futbol boʻyicha DXX kubogi musobaqasiga start berildi.

Eslatib o‘tamiz, viloyat bosqichida 1-o‘rinni egallagan jamoalar tegishli o‘rinni tasdiqlovchi kubok, maishiy texnikalar bilan taqdirlanadi hamda g‘olib jamoa mahallasiga “Workout” maydonchalari qurib beriladi.

DXX kubogida g‘olib bo‘lgan jamoalar mahallasiga mini-futbol maydonlari, 2-o‘ringa universal sport maydoni va 3-o‘rinlarni egallagan jamoalar mahallasiga “Stritbol” maydonlarini qurib berilishi, shuningdek sovrindor jamoalarni Toshkent viloyati, Bo‘stonliq tumanidagi O‘zbekiston yoshlar ittifoqi markaziy Kengashi “Shafran” tog‘-kurort kompleksida dam olishlari tashkil etiladi.





















Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown